

O`TKIR KORONAR SINDROM O`TKAZGAN BEMORLARDA UZOQ
MUDDATLI ASORATLAR XAVFINI ANIQLASH

Qodirova G.R., Tursunova L.D., Jabbarov O.O., Maksudova M.X.
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O`zbekiston

Dolzarbliqi: O`KS bilan shifoxonaga murojaat qilish boshqa kasalliklar bilan shifoxonaga murojaat qilishga nisbatdan sezilarli darajada yuqori. Bo`lmachalar fibrilatsiyasi (BF) o'tkir koronar sindrom (O`KS) bilan og'rigan bemorlar ichida eng ko'p uchraydigan asoratlaridan biridir. Ba'zi tadqiqotlarda O`KS bilan og'rigan bemorlarda BF rivojlanganligi kuzatilgan va O`KS bilan bog'liq bo'lgan asoratlardan biri ekanligi aniqlangan[1].

Tadqiqod maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi kasalxonaga yotqizish paytida O`KS bilan og'rigan bemorlarda BF rivojlanish xavf omillarini aniqlash.

Material va metodlar: 2015-yil yanvaridan 2022-yil dekabrighacha kardiologiya bo`limiga yotqizilgan 160 nafar o'tkir koronar sindromli bemorlarini retrospektiv tarzda ro`yxatga oldik. Kasalxonaga yotqizish paytida BF birinchi marta aniqlangan va ilgari BF anamnezi bo`lmagan bemorlarni tanlab oldik. ST segmenti elevatsiya bilan kechgan miokard infarkti 64 nafar (40 %), ST elevatsiyasiz kechgan o'tkir koronar sindrom 32 nafar (20 %), nostabil stenokardiya 64 nafar (40%) bemorlar o`rganildi. O`rtacha yosh chegarasi 58 ± 10 . Bundan 62 (38,75%) nafar ayol, 98 (61,25%) nafar erkak bemorlarni tashkil etdi.

Natija: Tadqiqotga jami 160 nafar o'tkir koronar sindromli bemor kiritilgan. 7 yildan keyin 5 (0.58%) bemorda bo`lmachalar fibrilyatsiyasi rivojlandi. O'tkir koronar sindromli bilan og'rigan bemorlarda bo`lmachalar fibrilyatsiyasini xavf omillarini kreatin kinaza-MB (CK-MB) (xavf foizi 4,279, $P < .05$) chap qorincha zarb hajmi (xavf foizi 0.01, $P < .05$) ekanligi aniqlandi. Kreatin kinaza-MB ning 142,5 ng/L chegarasidan foydalangan holda olib borilgan bo`lmachalar fibrilyatsiyasiga bo`lgan sezgirlik 73,3% va o'ziga xoslik 58,3% ni tashkil etdi.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqod natijalari shuni ko`rsatdiki, bo`lmachalar fibrilyatsiyasining rivojlanishi xavfi va kreatin kinaza-MB, chap qorincha zarb hajmi ko`rsatkichlari orasida sezilarli bog`liqlik bor. Keyinchalik bo`lmachalar fibrilyatsiyasi rivojlangan o'tkir koronar sindrom bilan davolangan bemorlarda kreatin kinaza-MB va chap qorincha zarb hajmi ko`rsatkichlari yomon bo`lgan. Tadqiqod davomida olib borilgan natijalarga asoslanib, miokard nekrozining biomarkeri bo'lgan kreatin kinaza-MB darajasi BF rivojlanishi xavfini baholovchi omil sifatida topildi. Bunda ehtimol,

miokard tuzilishidagi uzoq muddatli o'zgarishlar yurak shikastlanishining yanada rivojlanishiga va BF rivojlanish ehtimolining oshishiga olib kelgan bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Prediction Model of New Onset Atrial Fibrillation in Patients with Acute Coronary Syndrome. 2023 Feb 23:2023:3473603. doi: 10.1155/2023/3473603. eCollection 2023.
2. Prediction Model of New Onset Atrial Fibrillation in Patients with Acute Coronary Syndrome Volume 2023 | Article ID 3473603 | <https://doi.org/10.1155/2023/3473603>
3. „Unanswered Questions for Management of Acute Coronary Syndrome Risk Stratification of Patients With Minimal Disease or Normal Findings on Coronary Angiography” Raffaele Bugiardini, MD; Olivia Manfrini, MD; Gaetano M. De Ferrari, MD 14 April 2020 <https://doi.org/10.1002/clc.23363>
4. „Prognostic indicators of new onset atrial fibrillation in patients with acute coronary syndrome” Hengliang Zhang, Pingshuan Dong, Xvming Yang, Laijing Du, Ke Wang, Peng Yan, Huifeng Zhang, Tengfei Wang, Xikun Zhao, Tengfei Guo